

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 5/8

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 5/8 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Намазова Умида Нормуродовна</i> ФРАГМЕНТЫ ИЗ ИСТОРИИ САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ (1929-1945 ГОДЫ).....	10-15
<i>Эрназаров Туйгун Раджабович</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ- ГУБЕРНАТОРСТВА: КЛЮЧЕВЫЕ МОМЕНТЫ И ДОСТИЖЕНИЯ .....	16-21
<i>Хужаниязов Уктам Ешбаевич</i> “ҚОРАҚАЛПОҚФИЛЬМ” СТУДИЯСИ ХУЖЖАТЛИ ФИЛЬМЛАРИДА ТАРИХИЙ МАВЗУЛАР ТАЛҚИНИ .....	22-27
<i>Шаимкулов Азамат Холмуратович</i> ҚАЙТА ҚУРИШ ДАВРИ МАТБУОТИДА ИҚТИСОДИЙ МАСАЛАЛАР ТАЛҚИНИ .....	28-38
<i>Муродов Ҳалим Салимович</i> ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР .....	39-46
<i>Юлдашев Саиданварбек Бахромжон ўғли</i> ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ– ҚОРАХОНИЙЛАР ТОМОНИДАН ЗАБТ ЭТИЛИШИ ТАРИХИДАН .....	47-51
<i>Shonazarova Nargiza</i> TOSHKENT SHAHRIDA “OBOD MAHALLA” DASTURI VA UNING IJROSI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR .....	52-57
<i>Axmadova Nafisa Axmad qizi</i> O‘ZBEKISTON VA FRANSIYA MADANIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI .....	58-64
<i>Qodirova Ra’no Mamirjonovna</i> O‘ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINING O‘QITILISHI .....	65-70
<i>Yunusxo’jayev Habibulla Zafar g’o’li</i> SHARQDA KUCHLI IJTIMOIIY NIHOYA TIZIMI TARIXI .....	71-75
<i>Нарбеков Абдикамил</i> НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА СОВЕТСКОГО ГОСУДАРСТВА В ТУРКЕСТАНЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ .....	76-80
<i>Alimova G‘unchaxon Baxadirovna</i> JAMIYAT TARAQQIYOTINING TARIXIY RIVOJLANISH ASOSLARI DIN VA DAVLAT MISOLIDA .....	81-85
<i>Jumanazarova Fotima</i> XOTIN QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING SHAKLLANISH JARAYONI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....	68-93
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ziyodilloev Khushnud Rahimboevich</i> PORTFOLIO OPTIMIZATION OF COMMERCIAL BANK CREDITS: A LITERATURE REVIEW .....	94-100

<i>Hamrayev Amirzoda</i> ISLOMIY MOLIYA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI TASHKIOTLAR KAPITAL STRUKTURASI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	101-109
<i>Xaytboeva Nigora Bakmatatovna</i> TЎQIMACHILIK SANOAT KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASIDAN FOYDALANIШ BЎYIЧA ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАЛАРИ.....	110-119
<i>Xalilov Qahramon Qurbonboyevich</i> MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIK KLASTERNI SHAKLLANTIRISHNING DESTINATSION MODELI.....	120-132
<i>Махмудов Турсунпулат Давронович</i> ИНВЕСТИЦИЯ МАНБАЛАРИНИНГ МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ .....	133-144
<i>Ishchanova Salomat</i> KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING FAOLIYATINING O'RNI.....	145-150
<i>Muydinova Zilola Voxid qizi</i> ЧЕГАРА БОЖХОНА ПОСТЛАРИ ФАОЛИЯТИДА “АВТОМАТЛАШТИРИЛГАН ЙЎЛОВЧИ ХАРАКАТИ” МОБИЛ ИЛОВАСИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ ИҚТИСОДИЙ ТАХЛИЛНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ.....	151-158
<i>Samandarov O'gabek, Ismoilov Shohjahon</i> TURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	159-164
<b>09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Саидова Камола Усканбаевна</i> ФЕНОМЕН СВОБОДЫ ДЛЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА: КОМПАРАТИВИСТСКИЙ АНАЛИЗ .....	165-173
<i>Отонтурdiyev Orzu G'afforovich</i> INSONNING MA'NAVIY MOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QADRIYATLARNING AHAMIYATI .....	174-179
<i>Очилова Гузаль Араловна</i> ЮКСАК МАЪНАВИЯТ-МАНФААТЛАР БИРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУЎИМ ОМИЛИ.....	180-185
<i>Nurmatova Umida Jalolidinovna</i> MUTOLAA, SAVODXONLIK VA TA'LIMNING ANTINOMIK XUSUSIYATLARI.....	186-192
<i>Vafayeva Dilafruz Artikovna</i> AHMAD YASSAVIY TASAVVUFIIY TA'LIMOTIDA MA'NAVIY BARKAMOLLIK.....	193-198
<i>Karimov Zafarbek Ataboyevich</i> IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI.....	199-202
<i>Bozorova Ro'zigul Sharofovna</i> MEHRSIZLIK HODISASINI KELITIRIB CHIQUVCHI OMILLAR .....	203-212
<i>Xudoyberdieva Anorabonu Hayotovna</i> DINIY MANBALARDA IJTIMOIIY HAMKORLIK O'OYALARI .....	213-218
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUF FALSAFASIDA GO'ZALLIKNING IMMANENT JIHATLARI .....	219-224

<i>Dehqonov Behzod Baxtityorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QURISHDA YETTI PIRNING BAG'RIKENGLIK G'OYALARINI O'RNI VA AHAMIYATI .....	225-230
<i>Abdullayeva Firuza Sharipovna</i> NASIRIDDIN TUSIYNING IDROK NAZARIYASI VA KOMILLIK FALSAFASI .....	231-236
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> SHIHOBUDDIN UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL -MAORIF" ASARI VA UNDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR .....	237-243
<i>Ибрагимов Солижон Эргашович</i> АХБОРОТ ХУРУЖИ ВА "ОММАВИЙ МАДАНИЯТ" ТАҲДИДИ.....	244-251
<b>10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Qodirova Mukaddas Tog'ayena</i> BIZNES DISKURSINING MURAKKAB LINGVISTIK TABIATI.....	252-257
<i>Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich</i> DIFFERENT APPROACHES TO THE QUANTITATIVE-STATISTICAL CHARACTERISTICS OF PARTS OF SPEECH IN THE ENGLISH LANGUAGE .....	258-265
<i>Hamroyeva Sharifa Shukur qizi</i> TARJIMADA MILLIY SO'ZLARNING BERILISHI (OYBEKNING "NAVOIY" ROMANI INGLIZCHA TARJIMASI MISOLIDA) .....	266-271
<i>Olimova Gulfiza Muradullayevna</i> BADIIY SAN'AT TURLARINING XORAZM DOSTONLARIDA QO'LLANILISHI.....	272-281
<i>Айниддинов Иқрориддин Шарифович</i> АДАБИЙ МАНБАЛАРДА АШРАФ САМАРҚАНДИЙНИНГ ТАРЖИМАИ ҲОЛИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ .....	282-287
<i>Turaeva Dilfuza Daminovna</i> O'ZBEK TILIDA OBRAZLI SO'ZLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI .....	288-295
<i>Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna</i> LISONIY GRADASIYANING MORFOLOGIK, LEKSIK-SEMANTIK SATHDA PARADIGMA SIFATIDA NAMOYON BO'LISHI .....	296-305
<i>Ashurova Maftuna Asqar qizi, Yuldoshev Rustam Dilshod ugli</i> LINGUOCULTURAL COMPARATIVE ANALYSIS OF IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES .....	306-311
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARDA KOMPARATIV FRAZELOGIK BIRLIKLARNING KOMMUNIKATIV TA'SIRI XUSUSIDA .....	312-317
<i>Шамақсудова Саодат Хидоятовна</i> МАССМЕДИА АСПЕКТНИНГ МЕДИАМАТН ШАКЛИГА КЕЛИШИДАГИ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАР.....	318-324
<i>Шатова Ирина Юрьевна</i> ОСОБЕННОСТИ УПОТРЕБЛЕНИЯ ЛЕКСИКИ ПО РОДУ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ .....	325-330
<i>Nortoyeva Nodira Muhammadaliyevna</i> FRAZELOGIK DERIVATLARNI KONTEKSTLARDA ISHLATILISHINING KOGNITIV ASOSLARI .....	331-335

<i>Alimjanova Shohsanam Azamat qizi</i> KO'P MA'NOLI IBORALARNING KOGNITIV XUSUSIYATLARI .....	336-340
<i>Турниязова Шахноза Нигматовна</i> МАТНДАГИ БОҒЛАНИШЛИЛИК ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	341-347
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> INGLIZ ADABIYOTI TUSHUNCHALARINING XILMA -XILLIGI .....	348-352
<i>Aminova Dilnoza Hikmatullayevna</i> THE IMPORTANCE OF INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE ORIGIN OF MILITARY TERMINOLOGY .....	353-358
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи</i> ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШ ТУШУНЧАСИ ВА МОҲИЯТИ .....	359-365
<i>Mamatallyev To'liqin Xushmatat o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM HUQUQIY ASOSLARINING SHAKLLANISHI .....	366-378
<b>13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Saidov Jur'at Sodirovich</i> МАКТАВГАСНА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA TARBIYA BERISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	379-384
<i>Yusupaliyeva Shaxnoza Hakimjanovna,</i> ТЕХНИК ОЛИЙ О'QUV YURTLARIDA OO'ZAKI NUTQ KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USUL VA METODLARI .....	385-390
<i>Tadjixodjaeva Эльвира Рашидовна</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДОВ ИГРОПЕДАГОГИКИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ .....	391-396
<i>Тўрахонова Барно Турсунбой қизи</i> БЎЛАЖАК ПЕДАГОГ-ПСИХОЛОГЛАРНИ ТАРБИЯВИЙ ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ДИДАКТИК ИМКОНИЯТЛАРИ .....	397-406
<i>Ashurova Sitara Erkinovna</i> USING DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION .....	407-412
<i>Каримжоновна Мунаввар Ибрагимовна</i> ХИЗМАТ ИТЛАРИНИ МАХСУС ЙЎНАЛИШГА ТАЙЁРЛАШДА УНГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ (Божхона қўмитасининг Миллий кинология маркази мисолида).....	413-421
<i>Xamirayev Rustam Abdirazakovich</i> VOLEYBOLCHILARDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISH .....	422-426
<i>Хашимова Масуда Камилжановна</i> КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПРОЦЕССУ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ НАУК .....	427-435
<i>Бердикулова Насиба Эркинжоновна</i> СОДЕРЖАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕГРАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ .....	436-442



*Saidnazarova Gulshan Bolta qizi*

AL-BUXORIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO  
SIFATIDA .....443-448

*07.00.00-Тарих фанлари*

**Муродов Ҳалим Салимович,**  
Бухоро давлат педагогика институти  
«Ижтимоий фанлар» кафедраси, PhD.,  
Электрон манзил: [murodovhalim645@gmail.com](mailto:murodovhalim645@gmail.com)

### **ТУРИЗМ РИВОЖИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР**

**Аннотация.** Мазкур мақолада Ўзбекистон худудида туризм ривож тарихи масалалари жумладан, саёҳат ва туризм ривожда илк диний таълимот – зардуштийликнинг таъсири ҳамда марказлашган давлат омили, илм ўрганиш борасидаги сафарлар ва саёҳатлар ривожда савдо йўлларининг муҳим ўрни, шунингдек, соҳа тараққиёти учун мустамлакачилик тартибининг салбий жиҳатлари атрофлича таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** Авесто, саёҳат, Буюк Ипак йўли, Бухоро, мотив, Марказий Осиё, Амир Темур, «Сайфиддин», «Мерос».

---

**Muradov Halim Salimovich,**  
Bukhara State Pedagogical Institute  
Department of Social Sciences, PhD

### **REVIEW OF THE HISTORY OF TOURISM DEVELOPMENT**

**Abstract.** This article discusses the history of the development of tourism in Uzbekistan, including the influence of the first religious doctrine - Zoroastrianism on the development of travel and tourism, as well as the centralized state factor, the important role of trade routes in the development of scientific trips and trips, and also analyzes in detail on the ground negative aspects of the colonial order for its development.

**Keywords:** Avesta, travel, Great Silk Road, Bukhara, motive, Central Asia, Amir Temur, "Sayfiddin", "Heritage".

---

**Мурадов Ҳалим Салимович,**  
Бухарский государственный  
педагогический институт  
Кафедра «Социальные науки», PhD.,

### **ОБЗОР ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы истории развития туризма на территории Узбекистана, в том числе влияние первого религиозного учения – зороастризма на развитие путешествий и туризма, а также централизованного государственного фактора, важная роль торговых путей в развитие научных поездок и поездок, а также на местах подробно анализируются негативные стороны колониального порядка для его развития.

**Ключевые слова:** Авеста, путешествие, Великий шелковый путь, Бухара, мотив, Средняя Азия, Амир Темур, «Сайфиддин», «Наследие»..

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N05>

Turizm sohasi hozirgi kundagi eng ishonchli rivojlanayotgan va dunyo davlatlaridagi ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni yechishda hal qiluvchi omilga aylanib borayotgan iqtisodiyotning yetakchi tarmog'idir. Turizm rivojlanishi bilan butun dunyo davlatlari va xalqlarining siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy. Sayohat va turizm sohasining jadal rivojlanishi ta'sirida 2019-yilda dun- ma'rifiy aloqalarining kuchayishi kuzatilib, bu esa jahonda siyosiy aloqalarning kengayib, tinchlik va xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda yo bo'ylab yaratilgan barcha yangi ish o'rinlarining to'rtidan bir qismini, barcha ish o'rinlarining 10,6 foizini (334 million) va global YAIMning 10,4 foizini (9,2 trillion AQSH dollari) hamda ushbu yilda xalqaro tashrif buyuruvchilarning xarajatlari 1,7 trillion AQSH dollarini tashkil etdi (eksport umumiy hajmining 6,8 foizi, global xizmatlar eksportining 27,4 foizi)[1; wttc.org.]. Turizm sohasining rivojlanishi tarixi albatta turizm so'zining kelib chiqish, ma'nosi va qanday soha yoki harakat ekanligini bilishni taqozo etadi. Turizm (fransuzcha: our — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri sifatida tavsif etiladi. 2019-yil 18-iyuldagi "Turizm to'g'risida" qonunning 3-moddasida turizm — jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi)[2;Xalq so'zi]deb ta'rif berilgan. JST (Jahon Sayyohlik Tashkiloti) ning turistik atamalar lug'atida turizm - bu ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hodisa bo'lib, u odamlarning shaxsiy yoki biznes / kasbiy maqsadlarda odatdagi muhitdan tashqaridagi mamlakatlarga yoki joylarga ko'chishi bilan bog'liq. Bu odamlar tashrif buyuruvchilar (turistlar yoki ekskursionistlar, rezidentlar yoki norezidentlar bo'lishi mumkin) deb ataladi va turizm ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularning ba'zilar sayohat xarajatlarini o'z ichiga oladi [3;unwto.org]. Turizm insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab, u bilan birga hamqadam rivojlanayotgan dunyoqarash va tasavvurlarini o'zgarishi hamda kengayishiga ijobiy xizmat qilayotgan harakatdir. Albatta hozirgi davrdagi turizm sohasi rivojlanishini keng mushohada qilish avvalambor uning tarixiga nazar tashlashga undaydi. Tarixda Qadimgi Rim va Yunon sivilizatsiyalari davridan dastlabki sayohatlar mazkur mamlakatlar hamda qo'shni davlatlar hududi bo'ylab avj olgan. Shu davrdan boshlab Sharq va G'arbda paydo bo'lgan karvonsaroylar ilk sayohatchilar uchun vaqtincha qolish va dam olishi uchun dastlabki mehmonxonalar vazifasini bajargan. O'rta asrlarda dastlab bu sayohatlar jarayoni anchagina sekinlashgan bo'lsada, lekin XIV-XV asrlarda Uyg'onish davri va Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli ijtimoiy – iqtisodiy hayotda o'zgarishlar yuz berib, jumladan bank, birja, bozorlar vujudga kelishi bilan hunarmandchilik va savdoning jadal rivojlanishi tufayli sayohatlar qayta jonlanib, turizm rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Turizm hodisasi o'zining dastlabki bosqichlarida ma'lum hududdan tashqariga chiqa olmasa-da, keyinchalik transport vositalarining rivojlanishi bilan parallel ravishda tez rivojlanib, qit'alararo sayohat shakliga aylana bordi. XVIII – XIX asrlardagi sanoat to'ntarishi natijasida transport vositalarining paroxod, paravoz-lokomotivlarning ixtiro qilinishi dastlab G'arbiy Yevropani so'ngra butun dunyodagi insoniyat sivilizatsiyasini jadallashuviga turtki berdi. Transport vositalarining yaratilishi turizm rivojiga ijobiy ta'sir o'tkazib, ayniqsa uning ommaviylik xususiyatini ochib berib, kelajakda iqtisodiyotning mustaqil sohasi sifatida shakllanishiga zamin yaratdi. Zamonaviy ommaviy turizm Yevropada vujudga kelib, uning tashkilotchisi angliyalik Tomas Kuk (1808-1885) 1841-yil 6-iyul kuni birinchi sayyohlik agentligini ochib, dastlabki paketli tur (yagona narxda sotiladigan turistik xizmatlar paketi) ya'ni, guruhli dam olish turini tashkil etdi[4; B.205-206].

Turizm XIX asr oxiriga kelib shakllangan bo'lsada, faqat XX asrga kelib u jadal sur'atlarda kengayib katta muvaffaqiyatlar omili bo'ldi. Texnika va texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi va jamiyat munosabatlarining yuksalishi natijasida u "XX asr fenomeni" nomini oldi[5;B.19].

Ikkinchi jahon urushdan keyingi davrda mamlakatlararo sayohatlarning tiklanishiga urushdan keyin tuzilgan xalqaro turizm tashkilotlari va birinchi navbatda BMT huzurida 1946-yilda Xalqaro mehmonxonalar assotsiatsiyasi va 1947-yilda tashkil topgan rasmiy turizm tashkilotlari xalqaro ittifoqi – IUOTO faoliyati turtki bo'ldi[6;B.36-37]. IUOTO xalqaro turizm tashkilotiga SSSR 1956-yildan a'zo sifatida qabul qilingan. 1975-yilda IUOTO vorisi Jahon sayyohlik tashkiloti - xalqaro hukumatlararo tashkilot bo'lgan (JST) bo'ldi. Ushbu tashkilotning bosh qarorgohi Madridda joylashgan. 1975-yil 27-sentabrda JST Nizomi qabul qilinib, ushbu kun 1980-yildan boshlab Butunjahon turizm kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda[7;B.265-266]. Jahon sayyohlik tashkiloti xalqaro turizm industriyasining rivojlanishiga, davlatlardagi turistik siyosatni amalga oshirishga, turli xil turistik forumlar, konferensiyalar va tadbirlarni o'tkazish va ularda qabul qilingan xartiyalar, kodekslar, deklaratsiyalarda aks etgan normalar va sohaviy yangiliklar jahon davlatlari tomonidan tan olinishi va joriy etilishi turizm sanoatini jadal kengayishi hamda o'sishiga ko'maklashib, pirovard natijada sohaning jahon miqyosida ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyatining yuksalishiga yo'l ochdi.

Sayohat va turizm sohasining rivojlanishida Sharqning shu jumladan O'zbekiston joylashgan Markaziy Osiyoning ham hissasi kattadir. Qadim Sharq sivilizatsiyasining o'choqlaridan biri bo'lgan O'zbekiston hududiga miloddan avvalgi davrlar boshlarida insoniyatning qadami yetib, bu hududning tabiati, sersuv vodiylari va xazinaga boy tuprog'i hamda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik uchun qulay bo'lgan jozibador omillari sabab ajdodlar yashab qolgan maskanga aylandi. O'zbek davlatchiligining uch ming yillik tarixida milliy davlatchiligimiz rivojida qadimiy savdo yo'llarining va u orqali amalga oshirilgan xalqaro hamkorlik aloqalarining o'rni beqiyos bo'lgan. Qadimiy savdo yo'llari ilk sayohatchilarning dastlabki turistik tashrif yo'nalishi bo'lgan. Qadimiy Ipak yo'lining O'zbekiston hududidagi shaharlardan o'tishi bu maskanlarda dastlabki turistik infratuzilma bo'lgan karvonsaroylar, rabodlar, sardoblar, yo'llar va savdo sotiq inshootlarining bunyod etilishiga asosiy omil bo'ldi. Sayyohlik va sayohat bilan bog'liq tajriba o'zbek xalqining azal-azaldan mavjud bo'lgan mehmonnavozlik fazilati asosi bo'lmish mehmonni ulug'lash, milliy taomlarni tortiq qilish, nodir buyumlarni taklif etishi kabilar hozirda ham zamonaviy turizmning jozibador omillari qatoriga kiradi. Xullas turizm va u bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik xususiyatlari, tajriba va mahorat o'zbek xalqi merosiy qadriyarlardan biri edi.

Amudaryo va Sirdaryo atrofidagi yerlarga dastlabki odamlar manzilgohlari qaror topishidan ilk diniy ta'limot bo'lmish Zardushtiylilik tarqalishi davrlarida ham ajdodlarimiz sayohatlarni amalga oshirganlar. Binobarin, muqaddas kitob Avestoda "Har kim o'zi yashayotgan joyni dunyoning eng go'zal joyi deb bilmog'i kerak" – degan ibora orqali insonlarni vatanni bilish, ko'rish va zavq olish uchun sayohatlarga chiqishga da'vat etilgani diqqatga sazovordir[8;B.3]. Keyingi davrlarda hududda siyosiy davlatchilik tashkil topishi bilan Yevroosiyo qit'asidagi boshqa mamlakatlari bilan madaniy, savdo-iqtisodiy hamda diplomatik aloqalar rivojlanishi natijasida sayohatlar ko'paydi. Bu borada Sharq va G'arbning ming yillar davomida o'zaro aloqalarni jadal rivojlanishi va keng miqyosdagi sayohatlarga yo'l ochib bergan Buyuk Ipak Yo'lining ahamiyati juda ta'sirli bo'ldi. mil.avv. II asrning o'rtalaridan

boshlab, Xitoy sayyohi va diplomati Chjan Szyan xitoyliklar uchun ilk marta G'arbiy o'lka - O'rta Osiyo viloyatlariga yo'l ochgan davrdan boshlab Buyuk Ipak yili shakllanadi[9;B.113]. "Buyuk ipak yo'li" degan nom o'sha davrlarda G'arb davlatlari uchun juda qimmatbaho hisoblangan ipak mahsulotlari bilan bog'liqdir. Miloddan avval 101-105 yillarda imperator U Di Qano' hukmdorlariga, so'ngra Kushonlar va Parfiya podshohlariga o'z elchilarini jo'natib ular bilan diplomatik - savdo aloqalarini o'rnatadi. Shu tariqa miloddan avval II-I asrlarda Sharq bilan G'arbni bog'lovchi Buyuk Ipak yo'liga asos solinadi. O'z vaqtida nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu yo'lining dastlabki tarmog'i Xitoydagi Sian shahridan boshlanib, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo, Eron, Hindiston, Mesopotamiya orqali O'rta Yer dengizigacha cho'zilgan. Buyuk Ipak yo'lining janubiy tarmog'i O'zgan orqali O'shga o'tib, Quva - Marg'ilon - Qo'qon orqali Xo'jand, Samarqand, Buxoroga o'tgan. Buyuk Ipak yo'lining Buxoroga kelgan janubiy tarmog'i ikkiga bo'lingan. Bu tarmoqning janubiy yo'nalishi Buxoro - Qarshi - G'uzor - Kesh - Termiz orqali Hindistonga o'tib ketgan. G'arbiy yo'nalish esa Buxoro - Nishopur - Tehron - Qazvin - Hamadon - Bao'dod - Palmira yo'nalishi bo'ylab O'rta Yer dengizi bo'yidagi Tir shahrigacha cho'zilgan. Shimoliy yo'nalishi esa Xazar xoqonligi va Bulg'or davlati orqali Kiev Rusi va Yevropa mamlakatlarigacha cho'zilib, bu tarmoq VI asrdan boshlab rivojlana boshlagan[10;B.164].

Yevroosiyo materigining katta qismi Buyuk Ipak yo'li vositasida bog'lanib, bu yo'l orqali jamiyat hayoti rivoji jadallashgan. Buyuk Ipak Yo'li qariyb 2000-yil davomida Sharq va G'arb mamlakatlari diplomatik munosabatlari hamda xalqlarining moddiy va ma'naviy boyliklar almashinuvining keng qamrovli o'sishiga xizmat qilishi barobarida turistik sayohatlarning va ularga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma obyektlarining barpo etilishi va rivojlanishining omiliga aylandi. Ilk o'rta asrlarda arablar bosqinidan so'ng turizmning asosiy motivlaridan bo'lgan ilm olish va ziyorat uchun sayohatlar ko'payib, bu borada al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Forobiy, Ibn Sino, al-Buxoriy, Termiziy, Beruniy kabilar faol qatnashib, Sharq uyg'onish davriga asos solib, dunyo sivilizatsiyasiga ijobiy ta'sir o'tkazdilar. Shuningdek VIII - XII asrlarda faqatgina hadis ilmni o'rganish uchun Movorounnahrda 3000 dan ortiq ko'zga ko'ringan muhaddislar faoliyat yuritganligining o'zi ham e'tiqod bilan bog'liq sayohatlar rivojlanganligidan dalolatdir[11;B.69-70]. Ayniqsa IX - X asrlarda diniy e'tiqod bilan bog'liq sayohatlar kengayib, bu borada Imom al Buxoriy, At Termiziy va samarqandlik Imom Dorimiylar islom olami tan olgan buyuk muhaddislar bo'lib, Qur'ondan keyin turuvchi hadis to'plamlarini Buxoro, Samarqand, Shosh, Termiz, Marv, Bao'dod, Damashq, Qohira, Makka va Madina shaharlari bo'ylab safarlari natijasida to'pladilar.

Savdo yo'llari bo'ylab qurilgan karvonsaroy va sardobalar, choyxona va rabotlar savdo karvoni va sayohatchilarga dastlabki turistik xizmatlarni taklif etishgan. XIV - XVI asrlarda Amir Temur, Shohruh, Ulug'bek, Mirzo Bobur, Shayboniyxon, Abdullaxon II kabi hukmdorlar boshchiligidagi markazlashgan davlat omili Buyuk Ipak yo'li xavfsizligi ta'minlanishiga sharoit yaratib, savdo - sotiq va elchilik aloqalari kengayishi bilan turistik sayohatlarda son va sifat jihatdan ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

XVII - XIX asrlarda mintaqadagi davlatchilik boshqaruvi zaiflashib, markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi va mahalliy hokimiyatlarning kuchayishi natijasida siyosiy tarqoqlik hukm surishi sharoitida ko'p sohalarida tarqqiyotdan orqada qoldi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, fan va texnika sohalaridagi rivojlanishda G'arbiy Yevropa davlatlariga nisbatan juda sust edi. Lekin Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro savdo aloqalari cheklangan bo'lsada, Eron, Xitoy, Hindiston, Rossiya va Afg'oniston bilan davom etib, savdo karvonlari hamda sayyoh

musofirlar uchun karvonsaroylar, do'kon va omborlar qurish kabi bunyodkorlik ishlari olib borilgan. Ayniqsa XIX asrda Buxoro shahrida "Ayozon" "Fatxullaxon" "Sayfiddin" "Badriddin" kabi 38 ta karvonsaroy va shahar atrofida esa 22 ta bozor bo'lganligi [12;B.45]. fikrimizning dalilidir.

XX asrda sovet mustamlakachiligi davrida esa Markaziy Osiyo jumladan O'zbekiston turizmi jahon turizmi rivojidan orqada qoldi. Bu jarayonning asosiy sababi birinchidan, O'zbekiston davlati 1925-yildan 1991-yilgacha sobiq SSSR davlati tarkibida bo'lib, bu davrda amalga oshirilgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy siyosat avvalambor metropoliya manfaatlariga xizmat qilishi zarurligi ustuvor bo'lib, ikkinchidan sobiq SSSR hududi ya'ni 15 ta davlat g'oyaviy jihatdan to'liq nazoratga olinishi, uchinchidan esa, mustaqil xalqaro aloqalarning yo'lga qo'yilmaganligida edi. Shuningdek Sovet turizmi o'ziga xos tashkiliy markazga ega bo'lmaganligi uchun sohaning boshqaruviga turli organ va tashkilotlar jalb qilingan edi. Bu tashkilotlarning barchasi ham turizmning mohiyati, vazifalari va maqsadlari haqida umumiy tushunchaga ega emas edi. Ba'zilar turizmni o'quv ekskursiyalari, boshqalari - jismoniy tarbiyaning ajralmas elementi sifatida, uchinchilari - dam olish paytida dam olish yurishlari, uchinchilari - o'z ona yurtlari bilan tanishish deb hisoblashgan. 1926-yilda Xalq ta'lim komissarligi qoshida Birlashgan ekskursiya byurosi tuzildi. Birlashgan ekskursiya byurosi 1928-yil oxirida tugatilib, "Sovet turisti" ("Sovtur") aksiyadorlik jamiyati tuzildi. Bu jamiyat turizm sohasidagi xususiy sayyohlik idoralari va byurolarini siqib chiqardi [13;B.51]. 1928-yilda sovet sayyohlarining birinchi konferensiyasi bo'lib o'tdi va "Sovet sayyohi" qo'shma kompaniyasi, 1929-yilda esa xorijiy turizm bo'yicha monopoliya o'rnatgan "Inturist" o'z faoliyatini boshladi[14;B.302]. "Inturist" chet ellik sayohatchilar uchun Ittifoqni turistik maskanga aylantirish yo'lida qiyinchilik bilan bo'lsada samarali faoliyat yuritdi. Jumladan xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatish malakasi hamda qoidalari shakllantirildi.

Ichki turizm sohasida esa, 1930-yilda barcha ichki sayyohlik tashkilotlari bir tuzilmaga - Umumiy Ittifoq Proletar Turizm va Ekskursiyalar Ixtiyoriy Jamiyatiga (OPTE) birlashtirildi. 1936-yilda OPTE kasaba uyushmalari rahbarligida faoliyat yuritadigan Turistik Ekskursiyalar Byurosiga (BTE) aylantirildi. 1958-yilda "Sputnik" xalqaro yoshlar turizmi tashkiloti tuzilib, unga xalqaro yoshlar harakati bilan aloqalar o'rnatishi va ular bilan yosh turistlar almashinuvini tashkil etish vazifasi yuklatildi. Ittifoqda turizmning barcha turlari bo'yicha targ'ibot - tashviqot ishlarini yuqori saviyada olib borish, tarixiy, madaniy va hordiq chiqarish joylari bilan aholi va sayohatchilarni tanishtirish uchun 1966-yilda "Turist" jurnali chiqa boshlagan[15;B.20]. 1960-yillarda SSSRda turizmning beshta yo'nalishi faoliyat yuritgan. Jumladan: 1. Ichki turizm - kasaba uyushmalari tomonidan tashkil etilgan. 2. Inturist - tashqi turizm. 3. Yoshlar turizmi. 4. Harbiy turizm. 5. Maktab turizmi kabilardan iborat bo'lgan.

Shuningdek, sohadagi targ'ibot reklama faoliyatini xo'jalik ya'ni o'z-o'zini ta'minlash asosida 1971-yildan faoliyati yo'lga qo'yilgan "Turist" tashkiloti olib borgan [16;B.294-296]. SSSRda 1970 - 1980-yillarga kelib, ichki va tashqi turizmda o'sish ko'rsatkichlari namoyon bo'lib, albatta bunda asosan xorijiy turistlarning tarixiy - madaniy yodgorliklarga qiziqishining ustuvorligi katta ahamiyat kasb etgan. Bu davrda Ittifoqda ichki turizmni tashkil etishga mas'ul kasaba uyushmalari tomonidan 13000 ta turistik - ekskursiya yo'nalishi va tashqi turizm uchun esa Inturist tashkiloti 500 dan ortiq turistik marshrutlarni taklif qilgan. Jumladan chet ellik sayyohlarga xizmat ko'rsatish uchun 1985-yilda 55 ming o'rinli 100 dan ortiq mehmonxona,

motel va kempinglar xizmat ko'rsatgan. Chet ellik sayyohlarga SSSRning 150 ta shaharlaridan o'tgan 500 ga yaqin turli xil ekskursiyalar va sayohatlar taklif qilindi[17;B.203].

Turizm rivoji borasidagi yagona davlat siyosati yuritilmaganligi natijasi o'laroq 1922 – 1985-yillarda turistlarni ro'yxatga olish amalga oshirilmagan. Shuningdek, 1985-yilgacha Ittifoq respublikalari fuqarolarining sayohatlari borasida ham hech qanday statistika yuritilmagan[18;http://]. O'tgan asrning 50-90 yillarigacha bo'lgan SSSR turizmi rivojida to'siqlarning birinchisi turizm sohasida xususiy sektor faoliyati emas, davlat monopoliyasi o'rnatilganligi hamda tizimda raqobat muhitining yo'qligi, ikkinchidan esa turistik industriyadagi jahonda ro'y berayotgan yangiliklar va diversifikatsiya jarayonlaridan Ittifoq turizmining uzilib qolganligi, shu bilan birga turistik xizmatlar sifatining pastligi, uchinchidan AQSH boshchiligidagi G'arb davlatlari bilan "Sovuq urush" davridagi raqobati, to'rtinchidan esa Sovet Ittifoqida turizmdan dunyoning rivojlangan davlatlarida bo'lgani kabi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yuksaltirishga emas, balki soxta sotsializm yutuqlarini targ'ib qilish quroli sifatida foydalanishida edi. Bu borada turizmning iqtisodiy faktori ikkinchi darajaga surib qo'yilgan.

1990-yilda sanatoriy va dam olish maskanlaridagi umumiy o'rinlardan 6 mingtasi oilalar uchun, 1,2 mingtasi esa bolali ota-onalarni davolash uchun mo'ljallangan edi. 1990-yilda O'zbekistonda 5,4 ming o'ringa mo'ljallangan 111 ta bir-ikki kunlik dam olish maskanlari ham mavjud edi[19;B.143]. O'zbekistondagi sanatoriy-kurort davolash va dam olish muassasalari tarmog'i aholining ehtiyojlarini umuman qondira olmas edi. O'zbekistonning 1990-yildagi 20 million 322 ming kishilik aholisidan atigi 1,6 million kishi davolanish va dam olish huquqidan faol foydalana olgan xolos. Bu esa umumiy aholining 8 foizni tashkil etadi, xolos. Ayniqsa, sayyohlik korxonalarida pullik xizmat ko'rsatish sohasi yetarli darajada rivojlanmagan. Aholi jon boshiga pullik xizmatlarning ayrim turlari tahlil qilinsa, sayyohlik ekskursiya xizmatlari O'zbekiston bo'yicha aholi jon boshiga 6,4 rublni tashkil etadi. Bu Toshkent shahrida 19,0 rubl, Samarqand viloyatida 8,2 rubl, Buxoro viloyatida esa 6,9 rublni tashkil etib, qolgan viloyatlar esa respublika darajasidan past ko'rsatkichni qayd etishgan[20;B.79-80]. Bu esa ushbu sohada xo'jalik yuritishning yangi shakllarini joriy etish, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida narx-navoni belgilash, zamonaviy boshqaruvni joriy etish, kadrlar masalasi va turmahsulotlar targ'ibot-tashviqoti kabi masalalarda ko'plab muammolar mavjudligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mustaqillik arafasida O'zbekistonda turizm sohasi chuqur inqirozli holatda ekanligi kuzatiladi. Buning sabablari, birinchidan, Ittifoq davrida xalq xo'jaligining boshqa barcha sohalari kabi turizm va ekskursiya ishlari ham markaz tomonidan boshqarilishi va respublikalardagi mahalliy turizm tashkilotlarining mustaqil harakat qila olmasligi, hududlarda samarali va istiqbolli rejalar, yangi sayyohlik mahsulotlar, yangi tur yo'nalishlar yaratish hamda xorijiy hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatish imkonini bermagan. Ikkinchidan, turizm va ekskursiya ishlaridan kelayotgan daromadlarining bir qismi mahalliy hudud g'aznasiga kiritilmasda, ushbu mablag'lardan respublika yoki mintaqada sayyohlikni rivojlantirish uchun foydalana olmasligi, ya'ni ma'muriy to'siqlar mavjudligi. Uchinchidan, turizm sohasi kommunistik mafkuraning targ'ibotchisiga aylantirilib, uning asosiy iqtisodiy va ijtimoiy roli ikkinchi darajaga tushirib qoldirildi. To'rtinchidan, turizm rivojiga asosiy omil bo'lgan xususiy sektor faoliyati yo'lga qo'yilmadi. Beshinchidan, O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning va sayyohlarni jalb etishning omili bo'lgan tarixiy-madaniy yodgorliklar, masjid va maqbaralarning ko'pchiligi xaroba yoki butunlay yo'qolib

ketish holatiga tushib, ularda obodonchilik hamda ta'mirlash chora-tadbirlari tizimli yo'lga qo'yilmadi. Oltinchidan, Ittifoq davrida xalq xo'jaligini markazlashtirilgan rejalashtirish va direktiv (yuqori hokimiyat organlar tomonidan berilgan va bajarilishi majburiy sanalgan rasmiy yo'l-yo'riq, dastur, reja, ko'rsatma) boshqaruv usuli esa o'zini oqlamadi. Turizm mustaqillik arafasida juda og'ir tang ahvolga kelib qolgan edi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. <https://wtcc.org/Research/Economic-Impact>
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" gi qonuni // Xalq so'zi, №147(7377), 2019 yil 19 iyul .
3. <https://www.unwto.org/glossary-tourism-terms>
4. М.В.Соколова. История туризма."Академия" Москва–2008, Б-205-206.
5. М.Т.Алиева. Иқтисодий эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари "Фан".Тошкент – 2013, Б-19.
6. Орлов, И. Б., Попов, А. Д. Сквозь «железный занавес». Руссо туристо: советский выездной туризм, 1955—1991. Издательский дом Высшей школы экономики. Москва 2016 . С-36-37.
7. М.В.Соколова. История туризма."Академия" Москва–2008, Б-265-266.
8. Т. Xoldarov, X. Tulenova. Turizm (Sayyohlik). Toshkent-2016, "Iqtisod-Moliya", B.3
9. А. Хўжаев. Буюк ипак йўли. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, Тошкент-2007, Б-113.
10. Ўзбекистон тарихи, II жилд, Тошкент-2015, Б-164.
11. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Toshkent-2017, B-69-70
12. O'zbekiston tarixi, II jild, Toshkent-2015, B-45.
13. Г.Усискин "Очерки истории Российского туризма" Москва - Санкт-Петербург. "Герда", 2000. Б-51
14. И. Б. Орлов, А. Д. Попов. Сквозь «железный занавес». Руссо туристо: советский выездной туризм, 1955—1991 Издательский дом Высшей школы экономики, Москва -2016.Б-302
15. Р.Абдумаликов, Т.Холдоров. Туризм "Ўқитувчи" Тошкент-1988. Б-20.
16. М.В.Соколова. История туризма."Академия" Москва–2008, Б-294-296.
17. Ю.С. Путрик. История туризма. Федеральное агентство по туризму.Москва-2014. С-203.
18. <http://istmat.info/node/21341>
19. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Статистический ежегодник. «Узбекистан», Ташкент: 1991. – С. 143.
20. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. Статистический ежегодник. «Узбекистан», Ташкент: 1991. – С. 79-80.
21. Salimovich, M. H. (2022). Tourism Development in Bukhara During the 1990s and Its Problems. International Journal on Integrated Education, 5(6), 298-302.
22. Sadullayev, U. . (2023). THE ROLE OF WOMEN IN NEIGHBORHOOD MANAGEMENT IN UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 2(9), 132–135.



23. Мурадов, Х. С. (2023). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИ (ЎЗБЕКИСТОН МИСОЛИДА). Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 84-98.
24. Shokir o'gli, U. S. (2023). MILLIY QADRIYATLARIMIZ ASROVCHISI. Journal of new century innovations, 35(1), 79-80.
25. Murodov, H. S. (2023). MARKAZIY OSIYODA RIVOJLANISHNING YANGI TENDENSIYALARI: QOZOG 'ISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH VA HAMKORLIK MASALALARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 340-345.
26. Bobohusenov Akmal. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 29(1), 142-146. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/8667>
27. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz g'o'li. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(8), 111-114. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284>
28. <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/8287>.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 5/8 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).